

MAQOL VA MATALLARGA IZOHLAR

ADCHTI,
Roman-german va slavyan tillari fakulteti
25-01 KL guruh Abdurasulova Mashhura
Shavkatbek qizi
Ilmiy maslahatchi: Kabulova Umida
Sayidmaxamadovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqimizning boy ma'naviy merosining ajralmas bir bo'lagi sifatida hali hamon yashab kelayotgan maqol hamda matallar, ularning yaratilish tarixi, ularda aks etgan xalq hayoti, insoniy tuyg'ular tasvirini ko'rsatish, ularni o'rganilishi shuningdek maqol va matallarning o'zaro farqli jihatlari, badiiy asarlarda qo'llanilishi haqida o'rganilib chiqiladi.

Kalit so'zlar: maqol, matal, mavzu, tarix, munosabat, xalq, adabiyot, vaqt, qo'llanilish, fikr.

Annotation: This article examines proverbs and sayings that still exists as an integral part of rich spiritual heritage of our people, the history of their creation, the depiction of people's lives and human emotions reflected in them, their study, as well as the different aspects of proverbs and sayings, and their use in works of art.

Keywords: proverb, idiom, theme, history, attitude, people, literature, time, application, idea.

Аннотация: В данной статье рассматриваются пословицы и поговорки которые до сих пор существуют как неотъемлемая часть богатого духовного наследия нашего народа, история их создания, отражение в них народной жизни и человеческих чувств, их изучение, а также различные аспекты пословиц и поговорок и их использование в художественных произведениях.

Ключевые слова: пословицы, поговорки, тема, история, отношение, люди, литература, время, применение, мысль.

O'zbek xalqining og'zaki ijodida diniy ta'limotlar va axloqiy qadriyatlar alohida o'rin tutadi. Islomning asosiy tamoyillari (*halollik, adolat, insonparvarlik*) xalq maqollarida va matallarida o'z aksini topgan. *“Mehnat qilmaysan, non topa olmaysan”* degan maqol jamiyatning mehnatsevarlikka bo'lgan hurmatini ko'rsatadi, *“Sabrning oxiri saodat”* degan maqol esa islomda tahammul (o'zbek tilida *“tayammum”* bu islomda tahorat olish uslubi bo'lib suv yoki undan foydalanish imkoniyati yo'q bo'lganda toza tuproq, qum yoki shunga o'xshash)ga urg'u beriladi. O'zbek xalq maqol va matallari, ilk bosqichlarda ehtimol, boshqalar kabi, hikmatli so'zlar va qisqa ifodalarda ifodalanar edi. Bu davrda asosan og'zaki tarzda, oddiy va aniq fikrlarni ta'lim va nasihatlarini ifodalashda qo'llanilgan. Aksariyat maqollar xalq mehnatidan, tabiatan boshqaruvchidan (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik) olingan misollarni o'z ichiga olgan. *Beraman degan qo'liga, undan bundan yetkazar. Bermayman degan qo'lining bor yo'g'ini ketkazar.*

Xalq maqollarining rivojlanishi bilan birga, ilm fan va adabiyotning rivojlanishi, xususan, Firdavsiy, Xorazmiy va boshqa buyuk allomalarning o'z hayotiy ijodi ham xalq og'zaki ijodining boyitishga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu davrda juda ko'plab axloqiy, tarbiyaviy, mantiqiy va falsafaviy tavsiya beradigan maqollar mavjud bo'la boshlagan. Sovet ittifoqi davrida, 1920-1950-yillarda, o'zbek xalq maqollari va matallariga davlat siyosatining ta'siri sezildi. Biroq, bu davrda ham xalqning og'zaki ijodi, ayniqsa o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini saqlashda, katta ro'l o'ynadi. Xalq maqollari va matallarining ko'plari yangi sharoitga moslashgan va xalq turmushi, mehnati, adolatga oid bo'lgan xalq maqollari hali-hamon saqlanib qolmoqda. Va turmush hayotimizda qo'llanmoqda ular nafaqat an'anaviy tarbiya vositalaridan biri sifatida balki, zamonaviy ta'lim jarayonida yoshlarni tarbiyalashda, ularning ma'naviy axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ko'plab maqollarni xalq axborot texnologiyalari, internet tarmoqlari, televideniye va matbuot orqali ham keng tarqatish imkoniyati mavjud¹.

¹ Arxiv.Uz

Insoniy tuygʻularni tasvirini koʻrsatish har doim muhokama maydonida boʻlgan. Bu xususida birinchi prezidentimizning shunday fikrlari bor: “Ma’naviyatli, oʻz xalqini tarixini, ma’daniyatini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi”². Oʻzbek xalq maqollari matallarini qiyosiy oʻrganish bugungi kunda adabiyotshunoslik, tilshunoslik, xususan folklorshunoslik oldida turgan masalalardir. Maqol va matallar inson uchun ma’naviy ozuqa beradigan, ta’lim tarbiya ishlariga chorlaydigan, ya’ni xalqlarning rivojlanishida maqol va matallarning oʻrni nihoyatda katta. Keling bir maqolni tahlil qilib koʻramiz. Masalan: *“Yangi uyni buzma” “Avval iqtisod keyin siyosat”*. Bu qarashlar ilmiy va amaliy jihatdan toʻgʻri. Negaki insonlar uchun iqtisodiyotning muhimligi azaldan sezilgan. Shuning uchun iboralarda tejamkorlik ham fikr yuritiladi. Bung oid bir nechta maqollarni misol keltirish mumkin. *“Nonning ushogʻi ham non”*, *“Toma toma koʻl boʻlur”* va boshqa turli maqollarni misol keltirish mumkin. Maqollar yillar davomida sayqallanib rivojlantirilib borilgan. Maqollarda xalq ogʻzaki ijodi sifatida ajdodlarimizning koʻp yillik xayotiy tajribasi, jamiyatga munosabati, tarixi, iqtisodiyoti, axloqiy va ijobiy fazilatlarini mujassamlangan³. [Arxiv Uz]

Matallar – koʻchma ma’noda qoʻllanuvchi xalq majoziy iboralari boʻlib, ulardan voqea hodisalar, holat va harakatlarni jonli ta’sirchan ifodalashdan keng foydalaniladi, matallarda oʻxshatish va qiyoslashlarni kuchaytiradi. Matallar hamma vaqt tarkibi qanday boʻlishidan qat’iy nazar grammatik jihatdan gapning bir boʻlagi boʻlib keladi. Matal koʻchma ma’noda ishlatiluvchi xalq majoziy iboralarining bir turi. Matal oʻz ma’nosidan boshqa ma’noga koʻchirilgan soʻz birikmalaridan iborat boʻladi, kinoya, qochirma, soʻz va boshqa til vositalari qoʻllaniladi. Maqollarni mavzular boʻyicha juda koʻp turlari bordir. Masalan, hayotiy kuzatuvdan *“Tuyaga yantoq kerak boʻlsa, boʻynini choʻzar”*, *“Bekorga mushuk oftobga chiqmaydi”* biz bunday matallarning juda koʻp xillarini misol qilib aytishimiz mumkin. Bunday hikmatli

² Karimov I. Oʻzbekiston milliy istiqlof iqtisod, siyosat-mafkura. 6 jildlik. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1996, 80-bet

³ Arxiv Uz

soʻzlar, maqollar, bizga ota-bobolarimiz tomonidan biz uchun, tarixdan yozilgan boʻlib, bizni toʻgʻri yoʻlga yurishimiz uchun yozilgan balik aytib oʻtilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-uzbekcha lugʻati. – Toshkent, 63-bet.
2. Karimov I. Oʻzbekiston milliy istiqlol iqtisod, siyosat mafkura. 6 jildlik. –Toshkent: Oʻzbekiston, 1996. 80-bet.
3. Arxiv. Uz